



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2026-YIL № 1-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



**Academic
Resource
Index
ResearchBib**



Directory of Research Journals Indexing

**www.innoworld.net
O'ZBEKISTON-2026**



Volume 3 Issue 2 | 2026 |

+99833 5668868 | @Anvarbek_PhD

Page | 2

JINOYAT HUQUQIDA AYB TUSHUNCHASI: QASDDAN VA EHTIYOJSIZLIK OQIBATIDA SODIR ETILGAN JINOYATLAR

Salohiddinov Hikmatillo Lutfullo o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Akademiyasi

Ekspert-Kriminalistika yo'nalishi 1-bosqich kursanti

Annotatsiya. Ushbu maqola jinoyat huquqining fundamental asosi hisoblangan ayb tushunchasi, uning ijtimoiy-huquqiy mohiyati va shakllarini chuqur tahlil etishga bag'ishlangan. Tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalariga tayangan holda, jinoyat tarkibining subyektiv tomonini tashkil etuvchi aybning ikki asosiy shakli – qasd (to'g'ri va egri) hamda ehtiyotsizlik (o'z-o'ziga ishonish va beparvolik) o'rtasidagi chegaralar aniqlashtirilgan.

Muallif shaxsning o'z qilmishi va uning oqibatlariga bo'lgan ruhiy munosabatining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib, qasddan sodir etilgan jinoyatlar va ehtiyotsizlik oqibatidagi qilmishlarni kvalifikatsiya qilishdagi muammolarga to'xtalib o'tgan. Maqolada ayb shaklining nafaqat jinoiy javobgarlikni belgilashda, balki jazo turini va miqdorini tayinlashda, shuningdek, yetkazilgan zararni qoplash masalalaridagi hal qiluvchi ahamiyati ochib berilgan. Xulosa qismida sud-tergov amaliyotida ayb shaklini to'g'ri aniqlash va qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat huquqi, ayb, subyektiv tomon, qasd, ehtiyotsizlik, jinoiy javobgarlik, jazo tayinlash, jinoiy o'z-o'ziga ishonish, jinoiy beparvolik.

Abstract. This article is dedicated to an in-depth analysis of the concept of guilt, considered a fundamental basis of criminal law, as well as its socio-legal essence and forms. Based on the norms of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, the study clarifies the boundaries between the two main forms of guilt constituting the subjective side of a crime: intent (direct and indirect) and negligence (criminal levity and criminal negligence).

The author highlights the specific features of a person's psychological attitude towards their act and its consequences, addressing problems in the qualification of intentional crimes and acts committed through negligence. The article reveals the decisive importance of the form of guilt not only in establishing criminal liability but also in determining the type and amount of punishment, as well as in issues of compensation for damages. In the conclusion, scientifically grounded proposals and recommendations are developed for correctly determining the form of guilt in judicial-investigative practice and for improving legislation.

Keywords: criminal law, guilt, subjective side, intent, negligence, criminal liability, sentencing, criminal levity, criminal negligence.

Аннотация. Данная статья посвящена глубокому анализу понятия вины, считающейся фундаментальной основой уголовного права, ее социально-правовой сущности и форм. В исследовании, основываясь на нормах Уголовного кодекса Республики Узбекистан, уточнены границы между двумя основными формами вины, составляющими субъективную сторону преступления – умыслом (прямым и косвенным) и неосторожностью (легкомыслием и небрежностью).

Автор освещает специфические особенности психического отношения лица к своему деянию и его последствиям, останавливаясь на проблемах квалификации умышленных преступлений и деяний, совершенных по неосторожности. В статье раскрыто решающее значение формы вины не только при установлении уголовной ответственности, но и при назначении вида и размера наказания, а также в вопросах возмещения вреда. В заключении разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по правильному определению формы вины в судебно-следственной практике и совершенствованию законодательства.

Ключевые слова: уголовное право, вина, субъективная сторона, умысел, неосторожность, уголовная ответственность, назначение наказания, преступное легкомыслие, преступная небрежность

KIRISH.O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli sud-huquq islohotlarining hozirgi bosqichi, avvalo, insonning huquq va erkinliklarini, uning qonuniy manfaatlarini himoya qilishni oliy qadriyat darajasiga ko'tarish bilan xarakterlanadi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini takomillashtirishga oid ustuvor yo'nalishlar jinoyat qonunchiligini liberallashtirishni, xususan, jinoiy javobgarlikning muqararligi prinsipini adolat prinsipi bilan uyg'unlashtirishni talab etadi. Ushbu jarayonda jinoyat huquqining fundamental asosi hisoblangan "ayb" tushunchasi va uning shakllarini to'g'ri aniqlash masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, demokratik huquqiy davlatda shaxsning qilmishi qanchalik og'ir oqibatlarni keltirib chiqarmasin, uning harakatlarida ayb (qasd yoki ehtiyotsizlik) mavjud bo'lmasa, jinoiy javobgarlik yuzaga kelmasligi shart. Bu qoida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga va milliy qonunchiligimizdagi subyektiv ayblovi (nullum crimen sine culpa) tamoyiliga to'liq mos keladi.

Jinoyat huquqi nazariyasi va amaliyotida ayb – bu aqli raso, jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan shaxsning o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishga va uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga bo'lgan ruhiy munosabatidir. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 28-moddasida belgilangan "Aybsizlik prezumpsiyasi" hamda Jinoyat kodeksining 4-moddasida mustahkamlangan "Ayb uchun javobgarlik prinsipi" shuni anglatadiki, shaxs faqat qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan taqdirdagina javobgarlikka tortiladi. Biroq, bugungi kunda sud-tergov amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, jinoyat tarkibining subyektiv tomonini, xususan, aybning qasd (to'g'ri va egri) hamda ehtiyotsizlik (o'z-o'ziga ishonish va beparvolik) shakllarini bir-biridan ajratishda jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, texnika taraqqiyoti, transport vositalari va ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarning murakkablashuvi oqibatida sodir bo'layotgan jinoyatlarda "egri qasd" bilan "jinoiy o'z-o'ziga ishonish" o'rtasidagi chegarani aniqlash tergovchi va sudyalardan yuksak professionalizmni talab qiladi.

Zamonaviy o'zbek huquqshunos olimi M.H. Rustamboyev ta'kidlaganidek: "Ayb shaklini to'g'ri aniqlamasdan turib, qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish, demakki, adolatli jazo tayinlash mumkin emas. Aybning intellektual va irodaviy mezonlarini chalkashtirish shaxsning huquqiy holatini asossiz og'irlashtirishga yoki haqiqiy jinoyatchining javobgarlikdan qutulib qolishiga olib keladi". Masalan,

transport hodisalari yoki tibbiyot xodimlari tomonidan sodir etiladigan qilmishlarda ko'pincha ehtiyotsizlik qasddan sodir etilgan jinoyat sifatida noto'g'ri baholanishi holatlari uchrab turadi. Shu bois, ayb tushunchasining ijtimoiy-huquqiy mohiyatini chuqur tadqiq etish, qasd va ehtiyotsizlikning zamonaviy ko'rinishlarini tahlil qilish hamda amaliyotdagi mavjud kolliziyalarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish mazkur maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Jinoyat huquqi fanida ayb tushunchasi jinoyat tarkibining subyektiv tomonining markaziy elementi hisoblanadi. Subyektiv tomon – bu shaxsning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga va uning oqibatlariga bo'lgan ichki psixik munosabatidir. Aybning mohiyatini tushunish uchun uning psixologik tuzilishini tahlil qilish lozim. Har qanday irodaviy harakat zahirida inson ongida kechadigan murakkab jarayonlar yotadi. Yuridik adabiyotlarda aybning mazmuni ikki asosiy element – **intellektual** (ong) va **irodaviy** (xohish) jarayonlarning yig'indisi sifatida ta'riflanadi.

Professor M.Usmonaliyev o'zining tadqiqotlarida bu haqda shunday yozadi: "Intellektual element shaxsning o'z xulq-atvorining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglashi va uning natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfli oqibatlarni oldindan ko'ra bilishini (yoki ko'rishi lozimligini) ifodalaydi. Irodaviy element esa shaxsning ushbu oqibatlarga nisbatan ruhiy munosabatini, ya'ni ularni xohlaganligi, ularga ongli ravishda yo'l qo'yganligi yoki ularning oldini olishga ishonganligini bildiradi". Demak, shaxsni aybdor deb topish uchun uning ruhiyatida aynan shu ikki element mavjud bo'lganligini aniqlash shart.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 20-moddasiga binoan, ijtimoiy xavfli qilmish qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan taqdirdagina jinoyat deb topiladi. Bu norma aybning shakli (qasd yoki ehtiyotsizlik) jinoiy javobgarlikning zaruriy belgisi ekanligini tasdiqlaydi. Ayb shakli nafaqat qilmishni kvalifikatsiya qilishda (masalan, JKning 97-moddasi – Qasddan odam o'ldirish va 102-moddasi – Ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish), balki jazoni individuallashtirishda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Huquqshunos olim R.Kabulov ta'kidlaganidek: "Ayb shaklini aniqlashdagi xatolik, pirovardida sud hukmining qonuniyligiga putur yetkazadi. Chunki qasd – bu jamiyatga qarshi qaratilgan ochiqdan-ochiq yovuz niyat bo'lsa, ehtiyotsizlik – bu shaxsning mas'uliyatsizligi yoki diqqat-e'tiborsizligidir. Bu ikki holatga bir xil huquqiy baho berib bo'lmaydi". Shu sababli, tergovchi va sudyalarda har bir aniq holatda shaxsning ichki dunyosini, uning maqsad va motivlarini sinchkovlik bilan o'rganishlari talab etiladi.

Jinoyat huquqi nazariyasida qasddan sodir etilgan jinoyatlar ijtimoiy xavflilik darajasi eng yuqori bo'lgan qilmishlar toifasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 21-moddasida belgilanganidek, qasd o'zining psixologik mazmuniga ko'ra ikki turga bo'linadi: **to'g'ri qasd** va **egri qasd**. Ushbu bo'linish shaxsning o'z qilmishi oqibatlariga bo'lgan irodaviy munosabatining turlicha ko'rinishlariga asoslanadi. Qasdning shaklini to'g'ri aniqlash nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u jinoiy javobgarlikning og'irlashishiga yoki yengillashishiga sabab bo'lmaydi (chunki ikkisi ham qasd hisoblanadi), biroq shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilashda va jazo tayinlashda sud tomonidan inobatga olinadi.

To'g'ri qasd – bu aybning shunday shakli, bunda shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglaydi, uning ijtimoiy xavfli oqibatlari kelib chiqishini oldindan ko'radi va ushbu oqibatlarning kelib chiqishini xohlaydi. Yuridik fanlar nomzodi A.A. Otajonovning "Jinoyat tarkibi: subyektiv tomon muammolari" nomli monografiyasida ta'kidlanishicha: "To'g'ri qasdda intellektual element (anglash va oldindan ko'rish) bilan birga, irodaviy element – 'xohish' yetakchi o'rin tutadi. Bunda jinoyatchining maqsadi bevosita zararli oqibatni keltirib chiqarishga qaratilgan bo'ladi". Masalan, o'ch olish maqsadida birovga pichoq urgan shaxs jabrlanuvchining o'limini muqarrar deb biladi va shuni maqsad qiladi. Bu yerda qilmish va oqibat o'rtasidagi bog'liqlik aybdorning ongida aniq va ravshan aks etadi.

Egri qasd tushunchasi esa biroz murakkabroq tuzilishga ega. Jinoyat kodeksiga ko'ra, agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglasa, uning ijtimoiy xavfli oqibatlari kelib chiqishini oldindan ko'rsa-yu, biroq bu oqibatlarning kelib chiqishini xohlamasa-da, ularga ongli ravishda yo'l qo'ysa, bunday jinoyat egri qasd bilan sodir etilgan deb topiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar kitobida bu holatga shunday izoh berilgan: "Egri qasdnin to'g'ri qasddan asosiy farqi shundaki, bunda oqibat jinoyatchining bevosita maqsadi emas, balki uning boshqa bir maqsadga erishish yo'lidagi 'yon mahsuli' (qo'shimcha natija) sifatida namoyon bo'ladi. Shaxs oqibatni xohlamaydi, lekin unga befarq qaraydi yoki 'nima bo'lsa bo'lar' qabilida ish tutib, oqibatga rozi bo'ladi".

Sud amaliyotida, xususan, qotillik jinoyatlarini kvalifikatsiya qilishda bu ikki turni farqlash o'ta muhimdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2004-yil 24-sentyabrdagi "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 13-sonli qarorining 4-bandida aniq ko'rsatib o'tilgan: "Agar aybdor o'z harakatlari jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lishi mumkinligini oldindan bilsa-da, lekin o'lim kelib chiqishini istamasa ham, unga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa (masalan, hayot uchun xavfli bo'lgan a'zoga emas, balki duch kelgan joyga urishi), qilmish egri qasd bilan sodir etilgan deb baholanishi lozim".

Bu shuni anglatadiki, to'g'ri qasdda shaxs voqelikni o'zgartirishni faol istaydi (maqsadli intilish), egri qasdda esa shaxs o'z harakatlarining salbiy oqibatlariga passiv rozi bo'ladi. Masalan, bezori jamoat joyida tartibsiz o'q uzdi. U kimnidir o'ldirishni aniq maqsad qilmagan (to'g'ri qasd yo'q), lekin o'q odamlarga tegishi mumkinligini bilgan va bunga befarq bo'lgan (ongli ravishda yo'l qo'ygan). Agar o'q tegib odam o'lsa, bu egri qasd bilan sodir etilgan qotillik hisoblanadi. Demak, aybning bu shaklida "xohish" o'rnini "ongli ravishda yo'l qo'yish" egallaydi.

Jinoyat huquqi nazariyasida aybning ikkinchi shakli hisoblangan ehtiyotsizlik shaxsning ijtimoiy xavfli oqibatlarga nisbatan irodaviy munosabati bilan qasddan keskin farq qiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 22-moddasiga asosan, ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlar ikki turda – o'z-o'ziga ishonish (jinoiy kiborlik) va beparvolik (jinoiy g'aflat) shaklida namoyon bo'ladi. O'z-o'ziga ishonishda shaxs o'z xulq-atvorining ijtimoiy xavfli oqibatlari kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'radi, lekin yetarli asoslarsiz, yengil-elpilarcha bu oqibatlarning oldini olishiga ishonadi. Bu o'rinda eng murakkab amaliy muammo – "o'z-o'ziga ishonish"ni "egri qasd"dan farqlashdir, chunki har ikkala holatda ham shaxs oqibatni oldindan ko'radi (intellektual element mavjud). Professor M.H.

Rustamboyev ta'kidlaganidek, ularning farqi irodaviy mazmunda: egri qasdda shaxs oqibatning kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi va unga befarq qaraydi, o'z-o'ziga ishonishda esa shaxs oqibat kelib chiqishini xohlamaydi, aksincha, o'zining kasbiy mahorati, tajribasi yoki muayyan tashqi omillarga tayanib, oqibatni bartaraf eta olaman deb o'ylaydi. Beparvolikda esa shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatlari kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'rmaydi, vaholanki, ish holatlariga ko'ra va o'zining shaxsiy sifatlariga binoan u bunday oqibatlarni oldindan ko'rishi lozim va mumkin edi. Bu holatda beparvolikni "kazus" (aybsiz zarar yetkazish)dan ajratish talab etiladi. Jinoyat kodeksining 23-moddasiga ko'ra, agar shaxs oqibatni oldindan ko'rishi mumkin yoki lozim bo'lmagan bo'lsa, qilmish aybsiz sodir etilgan deb topiladi, ya'ni javobgarlik istisno qilinadi.

Ushbu nazariy qoidalarining amaliyotdagi ifodasini tushunish uchun sud-tergov amaliyotida tez-tez uchrab turadigan quyidagi hayotiy voqea (kazus)ni tahlil qilamiz: Fuqaro Valiyev (ism o'zgartirilgan) o'z boshqaruvidagi yuk avtomobilida aholi zich joylashgan hududdan o'tayotib, yo'lning ta'mirlanayotgan qismiga keladi. Yo'l belgisida tezlikni 40 km/soatgacha kamaytirish ko'rsatilgan bo'lsa-da, Valiyev "Men 20 yillik tajribaga ega haydovchiman, mashinamning tormoz tizimi yangi, bemalol boshqara olaman" degan fikr bilan tezlikni 70 km/soatda saqlab qoladi. Kutilmaganda yo'l chetidan velosipedchi chiqib qoladi. Valiyev tormoz bosadi va rulni buradi, lekin yuqori tezlik va yo'lning torligi sababli to'qnashuvning oldiniola olmaydi. Natijada velosipedchi voqea joyida vafot etadi.

Mazkur holatda tergov organi Valiyevning harakatlarini qanday malakalashi lozim? Agar bu holatga yuzaki qaralsa, haydovchi qoidani buzdi va odam o'limiga sababchi bo'ldi, demak, qasd bor degan xato xulosa chiqishi mumkin. Biroq, Jinoyat kodeksi normalariga asoslangan chuqur tahlil shuni ko'rsatadiki: Birinchidan, Valiyev oqibatni (to'qnashuvni) oldindan ko'rgan, ya'ni xavfli hududda tezlikni oshirish oqibati yomon bo'lishini anglagan. Ikkinchidan, uning irodasi o'limga qaratilmagan (to'g'ri qasd yo'q) va u o'limga befarq ham bo'lmagan (egri qasd yo'q). U o'limni xohlamagan, aksincha, o'zining haydovchilik tajribasi va mashinaning texnik sozligiga ishonib, fojiaoning oldini olishni rejalashtirgan. Ammo bu ishonch asossiz va yengil-elpilarcha bo'lgan. Shu sababli, Valiyevning qilmishi JKning 97-moddasi (Qasddan odam o'ldirish) bilan emas, balki JKning 266-moddasi 2-qismi (Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish odam o'limiga sabab bo'lsa) bilan kvalifikatsiya qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2015-yil 26-iyundagi qarorida tushuntirilishicha, agar shaxs oqibatning oldini olish uchun muayyan choralarni ko'rgan bo'lsa (Valiyev tormoz bosgan va rulni burgan), bu uning oqibatga rozi bo'lmaganligini va qasd mavjud emasligini tasdiqlaydi. Bu misol ehtiyotsizlik (o'z-o'ziga ishonish)ning egri qasddan farqini yaqqol namoyon etadi: egri qasdda jinoyatchi oqibatga "taslim bo'ladi", o'z-o'ziga ishonishda esa oqibat bilan "kurashadi", faqat bu kurashda mag'lub bo'ladi.

XULOSA. O'tkazilgan ilmiy-nazariy tahlil va sud amaliyoti materiallarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, jinoyat huquqida ayb tushunchasi va uning shakllari shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishga hamda uning oqibatlariga bo'lgan ichki, ruhiy munosabatini ifodalovchi murakkab huquqiy kategoriyadir. Qasddan va ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatlarni aniq chegaralash nafaqat nazariy

masala, balki qonuniylik va adolat prinsiplarining bevosita ta'minlanish garovidir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida mustahkamlangan aybsizlik prezumpsiyasi hamda Jinoyat kodeksining 4-moddasidagi ayb uchun javobgarlik prinsipi shaxsning faqat o'zi sodir etgan va aybi isbotlangan qilmish uchungina javobgar bo'lishini taqozo etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bugungi kunda sud-tergov organlari oldida turgan eng dolzarb muammo – bu "egri qasd" va "jinoiy o'z-o'ziga ishonish" o'rtasidagi nozik chegarani aniqlashdir. Professor M.H. Rustamboyevning haqli e'tirofiga ko'ra, "Sud xatolarining aksariyati aynan shu ikki shaklning psixologik mazmunini, ya'ni shaxsning oqibatga bo'lgan irodaviy munosabatini noto'g'ri talqin qilish oqibatida kelib chiqmoqda". Shu munosabat bilan, milliy jinoyat qonunchiligini va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir: Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 21-moddasi (Qasddan sodir etilgan jinoyat) va 22-moddasi (Ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat) mazmunini yanada aniqlashtirish lozim. Xususan, egri qasd tushunchasiga "shaxsning oqibatga befarq qarashi" belgisini qonun darajasida kiritish, o'z-o'ziga ishonishda esa "oqibatni bartaraf etishga qaratilgan faol harakatlar yoki real omillarga tayanish" mezonini mustahkamlash zarur. Bu o'zgartirish tergovchilarga ayb shaklini aniqlashda aniq huquqiy orientir beradi. Ikkinchidan, zamonaviy texnologiyalar va transport vositalari bilan bog'liq jinoyatlar ko'payib borayotganini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining ayrim toifadagi jinoyatlar bo'yicha qarorlariga "Aybning aralash shakllari va ularni kvalifikatsiya qilish mezonlari" haqida alohida tushuntirishlar kiritish taklif etiladi. Yuridik fanlar doktori G.S. Sattorov ta'kidlaganidek: "Texnika taraqqiyoti davrida inson omili bilan bog'liq jinoyatlarda 'intellektual tavakkalchilik' va 'jinoiy o'z-o'ziga ishonish' o'rtasidagi farqni ochib beruvchi yagona sud amaliyotini shakllantirish shart". Uchinchidan, murakkab jinoyat ishlari bo'yicha sud-psixologik ekspertizasi tayinlash amaliyotini kengaytirish va ekspertlar oldiga ayblanuvchining jinoyat sodir etish vaqtidagi ruhiy holatini (diqqatni jamlash qobiliyati, stress, affekt) aniqlash vazifasini qo'yish lozim. Bu "beparvolik" va "kazus" (aybsiz zarar) holatlarini to'g'ri ajratishga hamda asossiz javobgarlikka tortishning oldini olishga xizmat qiladi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ayb tushunchasi jinoyat huquqining "yuragi" hisoblanadi. Faqatgina shaxsning ruhiy munosabati to'g'ri va xolisona baholangandagina, tayinlangan jazo adolatli bo'ladi va jinoyat qonunchiligining ham jazolash, ham tarbiyalash maqsadi to'liq amalga oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – 80 b. (01.05.2023 yilda qabul qilingan yangi tahriri).
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. (2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra rasmiy matn). – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2024. – 256 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. (2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra). – Toshkent: "Adolat", 2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. – Toshkent: "Adolat", 2023. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son).

II. Sud amaliyoti materiallari:

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2004-yil 24-sentyabrdagi 13-sonli qarori. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining qarorlari to'plami (2000-2006 yy). – Toshkent: "Adolat", 2006.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2015-yil 26-iyundagi "Transport vositalari harakati xavfsizligi va ulardan foydalanish qoidalarini buzishga doir ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 10-sonli qarori. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining qarorlari to'plami. – Toshkent: "Adolat", 2015.

III. Ilmiy adabiyotlar:

7. Kabulov R. va boshqalar. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. – Toshkent: "Yurist-media markazi", 2009. – 162 b.
8. Otajonov A.A. Jinoyat tarkibi: subyektiv tomon muammolari. Monografiya. – Toshkent: "O'zbekiston", 2015. – 89 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism / Mas'ul muharrir: M.H. Rustamboyev. – Toshkent: "Adolat", 2016. – 198 b.
10. Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 1-tom. Umumiy qism. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – Toshkent: "Ilm-Ziyo", 2018. – 560 b.
11. Sattorov G.S. Jinoyat huquqida jazo tayinlash muammolari. Monografiya. – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2020. – 115 b.
12. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005. – 156 b.